



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 2-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdukarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Latipov Xursandbek

XIVA XONLIGIDA “XONBOZI DAVRI”5-11

Qodirov Najmiddin, O‘tanov Normo‘min

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARINI SHAKLLANISHI..... 12-22

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Rustamova Sayyora, Abdulhakimova Mohlaroy

TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TASHKILIIY MADANIYATNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 23-29

09.00.00- FALSAFA FANLARI

Yazdonov Ulugbek

ZAMONAVIIY DUNYO DRAYVERI SIFATIDA KIRIB KELGAN SUN‘IIY INTELLEKT VA UNING
RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI..... 30-34

Zakirov Shakirdjan, Djuraev Avazbek

THE ROLE OF INTERETHNIC HARMONY IN STRENGTHENING SOCIAL STABILITY IN
UZBEKISTAN 35-42

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Akhrorova Manzura

THE INTERPRETATION OF INNER SUFFERING AND SELF-SACRIFICE IN THE COMPARISON
OF HAMLET AND FARHOD..... 43-46

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Usmonqulov Jo‘rabek

SUN‘IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLIY TA‘LIMDA IJODKORLIK VA
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH..... 47-52

Jumaboev Nabi

POSSIBILITIES OF USING THE AESTHETIC HERITAGE OF ORIENTAL THINKERS IN YOUTH
EDUCATION 53-59

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Elmurodov Faxriddin

ELEKTORAL MADANIYAT VA UNING JAMIYAT SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI..... 60-65

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI SHAKLLANISHI****Qodirov Najmiddin Ne'matovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Xalqaro Nordik universiteti

Ijtimoiy fanlar va jurnalistika kafedrası mudiri

Email: n.qodirov@nordicuniversity.org

Tel: +998 90 354 89 21

O'tanov Normo'min Allayarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

huzuridagi Akademik litseyi kafedrası o'qituvchisi

Email: normuminutanov@gmail.com

Tel: +998 97 7040468

Annotatsiya. Ushbu maqola globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi barqaror taraqqiyot va demokratik institutlar mustahkamlanishidagi hal qiluvchi omil ekanligini nazariy jihatdan asoslaydi. Tadqiqotning maqsadi fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar ishtirokini kuchaytirishdagi rolini konseptual ravishda yoritish, yetakchi nazariy yondashuvlarni taqqoslash va institutsional rivojlanish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: yoshlar ijtimoiy faolligi, fuqarolik jamiyati, institutsional rivojlanish, O'rta Osiyo, inson kapitali, demokratik institutlar, Forobiy, jadidchilik, xalqaro qonunchilik.

**FORMATION OF THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR
INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN****Qodirov Najmiddin Ne'matovich**

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Head of the Department of Social Sciences and Journalism,

International Nordic University

Utanov Normo'min Allayarovich

Teacher of the Department of Academic Lyceum at Tashkent State Law University

Annotation. This article theoretically substantiates that youth civic engagement under globalization is a decisive factor in promoting sustainable development and strengthening democratic institutions. The study aims to conceptually examine the role of civil society institutions in enhancing youth participation, compare major theoretical approaches, and identify mechanisms of institutional development.

Keywords: youth civic engagement, civil society, institutional development, Central Asia, human capital, democratic institutions, al-Farabi, Jadidism, international law.

Kirish

Global ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yosh avlodning ijtimoiy faolligi jamiyat barqaror rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarning faol fuqaro sifatida shakllanishi, ularning jamoat hayotida qatnashishi,

tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usining yuksalishi demokratik institutlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining roli alohida e'tiborga loyiqdir, chunki ular yoshlar va davlat o'rtasida samarali muloqot va hamkorlik muhitini yaratadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining ilmiy-nazariy asoslarini yoritish, mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish va institutsional rivojlanishning o'ziga xos jihatlarini belgilashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil hamda ta'rixiy-mantiqiy usullar qo'llanildi. Ushbu usullar yoshlar ijtimoiy faolligi konsepsiyalari, fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari va ularning o'zaro bog'liqlik mexanizmlarini chuqur va kompleks o'rganish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida mavjud nazariy paradigmalar tahlil qilindi, ilmiy manbalar asosida fuqarolik jamiyatining yoshlar siyosatini amalga oshirishdagi o'rni konseptual jihatdan asoslandi.

Tadqiqot umumiy nazariy va konseptual xususiyatga ega bo'lib, ilmiy-metodologik yondashuvlar orqali yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning institutsional modellarini anglab yetishga qaratildi.

Muhokama

Insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki bosqichlaridanoq jamiyat taraqqiyoti va davlatchilik tizimining shakllanishida yosh avlodni tarbiyalash va ularni ijtimoiy faol subyekt sifatida voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan. Tarixiy rivojlanishning barcha davrlarida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularda jamoat hayotida ishtirok etish qobiliyati, ijtimoiy mas'uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari jamiyatni barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralgan.

Markaziy Osiyoda ham davlatchilik rivoji bilan birgalikda yoshlar ta'lim-tarbiyasi tizimlarining doimiy takomillashuvini ko'zatishimiz mumkin. Bu hududda qadimdan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni o'z davrining ilg'or bilimlari va tushunchalari asosida yetuk shaxs sifatida shakllantirish muhim jarayon sifatida qaralgan.

Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasida rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, shart-sharoitlar yaratish mexanizmlari uzoq o'tmishda ham xalqlarimiz turmush-tarzida o'ziga xos tarixiy tajribaga ega bo'lgan. Dastlabki ezgulik jamiyati va insonlarni ilmga intilishlarini ijobiy jihatlar haqidagi ulug'vor g'oyalar eng qadimgi manbalardan biri "Avesto"da keltiriladi [51; 34-b.]. Mazkur manbada inson huquqi, shaxs erkinligi, erkak va ayolning tengligi masalasi, ozchilikning huquqi, voyaga yetmaganlar huquqi, vijdon, e'tiqod va din erkinligi, jamoa va guruhlarining huquqi, mol-mulk huquqi, oila huquqi, shartnomalarning majburiylik huquqi aks etgan. Shuningdek «Avesto»da o'g'rilik yoki bosqinchilik farqlari tasniflangan, himoya huquqi va sud ishlarini yuritish hamda tashkil etish kabi boshqa huquqiy tamoyillar ham o'z ifodasini topgan [20; 22-b.].

Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yosh avlodga hunar, o'tmish ajdodlar ilmini o'rgatish va boyitib borishning azaliy tajribalarini qo'llanilishi ortida yuksak ilmiy va madaniy yuksalishlarga erishilganligini, dunyo ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qushgan buyuk allomalar yetishib chiqqanligini hamda ushbu xalqlarning ta'lim-tarbiya an'analari ko'plab davlatlar tarixida ijobiy tajriba sifatida

qo'llanilganligi [54, s. 247] tarixiy tadqiqotlarda keltiriladi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining asarlarida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash zarurligini, qonun ustuvorligini talqin etadi. Uning e'tirof etishicha, jamiyatning insoniylik mezoni odamlarning kundalik ehtiyojlari qanchalik qondirilganligi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir [28; 70, 125, 161-b.].

Abu Ali ibn Sino adolatli jamiyatning mavjud bo'lishi sharti sifatida birinchi o'ringa insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va axloqiy munosabatlarni qo'yadi. Uning fikricha, yuksak axloq sohibi bo'lishga faqat va faqat ma'rifat yordamida erishish mumkin bo'lib, axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlashni muhim omili bo'lgan [36; 106-108-b.].

Shu davrning yirik namoyondalaridan biri «Sharq Aristoteli» nomini olgan Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy davlatga bo'lgan ehtiyojlarning paydo bo'lishini, unda adolat va axloqning shakllanish qonuniyatlari nazariy tamoyillarini yaratganligi bilan mashhurdir. U "Fozil odamlar shahri" asarida adolatli jamiyat qanday bo'lishi, uni bunyod etishning qonun-qoidalari, bunday jamiyatda inson eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, fazilatli jamoa, fazilatli xalq, yer yuzini fazilatli bo'lishi, bunga erishishda unga munosib farzand tarbiyasi kabi g'oyalarni ilgari surgan tarixiy asardir [60; 15-b.].

Yusuf Xos Hojib o'z asarida jamiyat ravnaqi uchun ilm va tarbiya, ziyoli shaxslarning naqadar muhimligini ta'kidlab, «odamzod naslining ulug'ligi bilimdandir. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni yechishga qodir. O'quv-idrok va bilim egasi bo'lgan har qanday odam sharaflidir» [62; 14-b.], deb ta'lim-tarbiya tizimiga yuqori baho beradi.

Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida adolatli davlat siyosatini yuritish, oddiy xalq manfaatlarini doimiy e'tiborda bo'lishi kabi g'oyalar qatorida yoshlarni tarbiyalash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga, davlat, jamoatchilik boshqaruvi va nazoratida ishtirok etishga da'vat qilinadi [49; 12-b.].

IX–XII asrlar Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, islom falsafasining nazariy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davri bo'ldi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Al-Moturidiy, Muhammad Imom Fazzoliy, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin al-Marg'iloniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abdulholiq Fijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi buyuk allomalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida borliq, ilohiy qudrat, inson komilligi, adolat, insof, diyonat, vijdon kabi g'oyalar inson ruhiyatini poklash orqali [55; 9-120-b.] erkin jamiyatga va barqaror taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslaydilar.

XIII–XIV asrlarda O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi davrida jabr-zulm va zo'ravonlik kuchaydi, madaniy boyliklar, ilm maskanlari, madrasa va kutubxonalar yo'q qilindi, san'at va ilm-fan vakillari: olimlar, shoir va yozuvchilar, munajjimlar, me'morlar va musavvirilar o'ldirildi, omon qolganlari Shimoliy Hindistonga, Farbiy Eron va Xuroson viloyatlariga qochib jon saqlab qoldilar [55; 67-b.]. Amir Temurning siyosiy sahnaga kelishi, mamlakatda o'rnatilgan barqarorlik markaziy davlatning tez orada mustahkamlanishiga, siyosiy kuchlar tarqoqligini bartaraf etishga, islohotlarning amalga oshirilishiga, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

"Temur tuzuklari"da davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi,

jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirilganligidan dalolat beradi [26; 24-b.]. Bunday siyosatning asos-mohiyati adolatli davlat, insonparvar jamiyat negizlarini qaror toptirishga qaratiladi. Amir Temur davlat boshqaruvida kengash, mashvarat va maslahat mexanizmlarini naqadar muhimligini isbotladi [27; 6-12-b.]. Uning davlatida ilm-fan, ma'naviyat, me'morchilik va san'at beqiyos darajada rivoj topdi va fanda bu haqli ravishda ikkinchi Uyg'onish davri deb talqin qilindi [56; 6-b.].

Yosh avlodni ilmiy va ma'rifatli qilib tarbiyalashning tarixiy ahamiyati haqida o'z asarlarida ko'p targ'ib qilgan Alisher Navoiy amalda ko'plab yoshlarga ta'lim olishlari uchun sharoit yaratib berganligi tarixdan ma'lum [32; 37-b.].

Zahiriddin Muhammad Bobur [31; 14; 46; 32-b.], Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniylar davlatshunoslik, axloqshunoslik, adabiyot, ta'lim-tarbiya, nasr va nazm sohalarida ijod qilib, jamiyatni boshqarish asoslari, ijtimoiy tabaqalarning o'zaro munosabatlari, adolatli va adolatsiz podshoh fazilatlari, fuqarolarga odil munosabati, axloq va ta'lim-tarbiya masalalari chuqur tahlil etilgan [61; 37; 18; 19;].

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida shakllangan jadidchilik harakatida jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rni beqiyos deb hisoblanganligi bois, muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirilib va qo'llab-quvvatlanishi, yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimni yaratishga intilganlar [59; 81-83-b.; 14; 16; p. 464-477].

Milliy taraqqiyparvarlar o'qituvchilik qilishgan, ham Sharq, ham G'arb madaniyatini egallashga intilishgan, turli mamlakatlardagi ta'lim va madaniyatni ko'zdan kechirib, solishtirgan holda dunyo sivilizatsiyasi yutuqlarini Turkistonga yoyish orzusida bo'lishgan [29; 30; 22; 24; 25; 35; 58; 27; 9-b.]. Buning uchun eng avvalo yosh avlodni ilmiy qilib tarbiyalash va ularni dunyoning ilg'or bilimlaridan bahramand etish, zamonaviy taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda yetuk mutaxassislar sifatida voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish zarurligini anglaganlar [2].

Sobiq ittifoqning dastlabki kunlaridan so'nggi davrigacha aholi orasidan yoshlar qatlami yangi yaratilayotgan davlat va sotsialistik jamiyatni rivojlantirishda barcha islohotlar, g'oyaviy yangilanishlarda sovet hokimiyatining asosiy tayanchi vazifasini o'tagan va o'z o'rnida sovet hokimiyati ham yoshlarni o'zining asosiy tayanchi deb bilgan. Mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy qurilishni, barcha islohotlarni yosh avlod, yosh kadrlarga tayangan holda amalga oshirilganligi bunga isbot bo'ladi. Shu jarayonlarda, yoshlarni yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya tizimlari orqali zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan, sovet jamiyati rivojiga hissa qo'sha oladigan avlod sifatida shakllanishiga erishilgan. Bu jarayonlarda yetakchi bo'lgan komsomol tashkilotining roli katta edi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun maktablarda, oliy o'quv yurtlarida va ishchi-kolxozchilar orasida siyosiy targ'ibot ishlari olib borilgan. Bu jarayonda yoshlar mehnatga jalb qilingan, ijtimoiy-siyosiy faolligi oshirilgan [44; 42; 41; 40; 23].

XX asrning so'ngida, Sovet ittifoqi parchalanishi va uning o'rnida mustaqil davlatlarning, shu jumladan, mustaqil O'zbekiston respublikasining paydo bo'lishi yangi voqelikka moslashish, yangicha taraqqiyot strategiyasini belgilash, mavjud resurs va

imkoniyatlardan foydalanib, dunyoda hukm surayotgan globallashuv jarayonlarida o'z taraqqiyot yo'lidan borishdek muhim vazifani quydi. Yangi va zamonaviy davlatchilik asoslarini yaratish, taraqqiyot yo'lini belgilashdek vazifalar qatorida jamiyatni xarakatlantiruvchi va kelgusi rivojlanishi kafolati sifatida yoshlar qatlamiga katta e'tibor qaratish zarurati vujudga keldi.

O'zbekistonning istiqbolga erishishi, hayotning barcha sohalari qatori, bu boradagi islohotlar va yangilanishlar uchun keng imkoniyat yaratdi. Ushbu yo'nalish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada Birinchi Prezident Islom Karimovning bildirgan quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining eng asosiy maqsad-muddolari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy xulosa bo'lib hisoblandi: «...yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi darkor» [39; 131-b.].

Yoshlarning ijtimoiy faolligiga tarixiy nuqtayi nazardan davr talabi, ijtimoiy-madaniy yuksalish, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning ko'rsatkichi, shuningdek, jamiyat taqdirida ishtirok etish va o'zini ro'yobga chiqarish shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu xulosalarga asoslanib va o'sha davr talablaridan kelib chiqib, respublikada yoshlar muammosiga alohida ahamiyat berildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratildi [15; 10-17-b.].

Sog'lom rivojlanish yo'lidagi jamiyat doimiy harakatda bo'lib, u muttasil o'zgarishlar, barqaror rivojlanishni ko'rsatkichlarini saqlaydi, jamoatchilik dunyoqarashi va ongida har xil g'oyalar shakllanadi va rivojlanib boradi. Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari ana shunday murakkab hamkorlik munosabatlarini tashkil etadi va jamiyatni ijobiy taraqqiyot sari yetaklovchi tashkiliy kuch vazifasini o'taydi. Xuddi shu vaziyatda doimo yosh avlod kelajak taraqqiyotni kafolatlovchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham yoshlar ijtimoiy faolligini maqsadli yo'naltirilgan holda oshirib borish barqaror taraqqiyot suratlari saqlashning eng to'g'ri yo'li ekanligini asoslaydi [47].

Xalqaro tashqilotlar tahlil markazlari, qator tadqiqotchi olimlar fikrlariga ko'ra bugungi kunda yoshlar tarixan butun dunyo bo'ylab ijtimoiy jarayonlarning xarakatlantiruvchi kuchi bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Ushbu ijtimoiy guruh fuqarolik xarakatlari va uyushmalari ishtirokchilarining muhim qismini tashkil etadi. O'z navbatida ushbu uyushmalar, bir tomondan, ijtimoiy siyosat subyektlari sifatida harakat qiladi, turli yoshdagi guruhlarining manfaatlarini ifodalaydi va shu bilan yoshlar tashabbuslarining rolini kuchaytiradi, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantiradi [17; 8; 12; 7; 10; 11; 5; 6]. Shuning uchun ham tadqiqotchilar, ham kuzatuvchi tashkilotlarning e'tibori ushbu yosh guruhiga qaratilgan.

Bugungi axborot asri va globallashuv jarayonlari, shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoning g'oyaviy manzarasi yoshlar ijtimoiy faolligini, ularning rivojlanishi jarayonlarini doimiy e'tiborda bo'lishini zaruriy omilga aylantirdi.

O'z o'rnida zamonaviy sharoitlar yoshlar uchun qiyin vazifalarni qo'yimoqda. Jamiyatlardagi umumiy aholi tarkibidagi yoshlarning ulushi hududlar kesimida tobora

kamayib yoki, aksincha, ko'payib borayotganini yodda tutish kerak. Yoshlar yuqori avlod vakillaridan mas'uliyat yukini o'z zimmlariga olishlari uchun avlodlar o'rtasidagi muloqot zarur. Binobarin, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada qaror qabul qiluvchilar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslangan yoshlar strategiyasini yaratish hamda ularni davr chaqiriqlariga mos ravishda doimiy takomillashtirib borish zarur [4; 9].

Natijalar

Ijtimoiy faollikni oshirishda yoshlarni amaldagi islohotlar va taraqqiyot tendensiyalarini davom ettiruvchilar sifatida voyaga yetishlari uchun yahlit tarbiya tizimi shakllantirish barcha jamiyatlarda ham ustuvor va ahamiyatli vazifa sifatida gavdalandi. Ayniqsa, taraqqiyotning bugungi bosqichida bu masalaga umumjaxon miqyosida katta e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy dunyoda yoshlarning o'zini o'zi anglashi borasida zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun yetarli resurslar, mamlakatlararo darajada yoshlar siyosatini amalga oshirishning samarali mexanizmlari faoliyatida mavjud xalqaro tashkilotlar va muassasalarning faoliyati muhim ahamiyatga egaligini namoyon etdi [13, 17-b.]. Yoshlar siyosatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydigan xalqaro institutlar tizimida markaziy o'rinni Yevropadagi yoshlar siyosati institutlari egallaydi, ularning faoliyati tajribasi va natijalarini o'rganish rivojlanayotgan mamlakatlardagi yoshlar muammolariga bo'lgan qiziqishning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida alohida qiziqish uyg'otadi. Yevropa yoshlar siyosatining asosiy tamoyillarini tushunish va uning alohida Yevropa institutlari tomonidan amalga oshirilishi tajribasini o'rganish kelajakda samarali milliy yoshlar siyosatini ishlab chiqish uchun muhim bo'lishi mumkin [53; 84-99-b; 57; 23-b.].

Yangi asrga qadam qo'yish bilan xalqaro hamjamiyat tomonidan yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha Birlashgan millatlar tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining "Jahon yoshlar hisoboti 2005. Yoshlar bugun va 2015 yilda", nomli hisobotida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda faoliyatni umumlashtirilgan holda ustuvor yo'nalishlarni 3 ta asosiy masalalar guruhiga ajratish taklif qilindi. Xususan: jahon iqtisodiyotidagi yoshlar, fuqarolik jamiyatidagi yoshlar va xavf ostida bo'lgan yoshlar [19; pp. 16-17]. 2007 yilda qabul qilingan "Yoshlar uchun Butunjahon harakatlar dasturi"da esa faoliyatning o'nta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi. Bular: ta'lim, bandlik, ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, giyohvandlik, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik, bo'sh vaqtni o'tkazish, gender masalalari, shuningdek, yoshlarning jamiyatda va qarorlar qabul qilishda samarali ishtirok etishi [18, p. 44; 45, p. 12]. Keyingi yillarda yetishib kelayotgan yosh avlodni maqsadli rivojlantirishning to'g'ri tashkil etish borasida BMTning yondashuvida yoshlar bilan ishlashda to'rtta asosiy maqsad belgilandi:

- yoshlarning hayotiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qarorlarni qabul qilish jarayonlarida ularning ishtirokini ta'minlash;
- asosiy xizmatlar va rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishlarini tashkil etish;
- qulay, himoyalangan va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratish;
- ularning o'z qobiliyatlari va iste'dodlari to'liq rivojlanishini ta'minlash [50; 52].

So'nggi o'n yilliklar amaliyoti tez o'zgaruvchan dunyoda inson kapitalini samarali rivojlantirishni va undan samarali foydalanishni amalda qo'llayotgan, shuningdek, asosiy tashuvchisi yoshlar bo'lgan, innovatsion rivojlanishning strategik salohiyatiga ega bo'lgan

jamiyatlar ustunlikka ega bo'layotganligini isbotlamoqda. Jamiyatdagi kam sonli ijobiy kuchlardan biri bo'lgan yoshlar rivojlanish va taraqqiyotga hissa qo'shish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega [33; s. 41-43; 34].

Yuqoridagi ma'lumotlar yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarini ishtirokini nafaqat asoslaydi, balki ularning ishtirokini zaruriy omil sifatida namoyon etadi. Dunyo hamjamiyatida ham yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish tajribalarida fuqarolik jamiyati institutlarini keng ishtiroki ko'zatiladi. Bu borada, bir qator muvaffaqiyatli amaliyotlar haqida to'xtalib o'tish mumkin. Misol uchun, Yaponiya yoshlar siyosatini amalga oshirish davlat va nodavlat tashkilotlarining birgalikdagi o'zaro manfaatli harakatlari, shuningdek, ularning vazifalarini aniq taqsimlash bilan tavsiflanadi. Osiyo mamlakatlarida esa yoshlarni o'qitish va ish bilan ta'minlash muammosiga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati yoshlar hayotining barcha sohalariga e'tibor qaratadigan Xitoy Kommunistik partiyasining qarorlariga to'liq muvofiq ravishda amalga oshiriladi [38; S. 397-405; 43; S. 277-292].

Markaziy Osiyo davlatlari aholisining umumiy tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo'lgan, rivojlanayotgan davlatlar bo'lib, bu holat mamlakatlarni yoshartiradi. Bu esa yoshlarni rivojlantirish bo'yicha maxsus strategiya va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhimligidan dalolat beradi. Markaziy Osiyo uchun tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash uchun kun tartibidagi asosiy vazifalardan biri yoshlar muammolari bilan bog'liq masalalardir [48; s. 4]. Boshqa jihatdan yosh avlodning ko'p sonliligi inson kapitalining boy resursini anglatib, ushbu resurslardan unumli foydalanish kelajakdagi taraqqiyotning muhim omili ekanligi aniq ko'rsatkich hisoblanadi. Inson kapitali rivoji ta'lim va tarbiya orqali shakllanadi. Yosh avlodga yo'naltirilgan har qanday sarmoya kelajakda ko'p barobar samara beradi. Shu jihatdan, O'zbekistonda yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar zamon talablariga mos inson kapitaliga investitsiya sifatida qaralishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda dunyoni o'zgacha idrok etadigan, o'z taqdirini Vatandan ayro ko'rmaydigan, xalqi, Vatani uchun jonini fido qiladigan, o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan yangi avlod shakllanmoqda. Bu borada g'oya va mazmun rivojini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda» [3; 247-b.], degan fikri asoslaydi.

Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha davlat tashabbuslarini izchil joriy etish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli shaxslar sifatida tarbiyalash Yangi O'zbekistonni bunyod etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [1; 21].

Ushbu jarayonlar barobarida, yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli muhimligi nuqtayi nazaridan, ular faoliyati samaradorligini oshirish uchun qonunchilik asoslari takomillashtirish, ular faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhimligi holati saqlanib qolmoqda.

Xulosa

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston misolida ham yoshlarni yetuk avlod sifatida tarbiyalash va jamiyatda ijtimoiy faol qatlam sifatida shakllantirish uchun samarali an'analar bo'lgan. IX-XXII va XIV-XV asrlardagi Uyg'onish davrlari va XIX asr o'rtalari – XX asr

boshlaridagi jadidlar harakati bunday tajribalarning yaqqol namoyishi bo'lib, ta'lim-tarbiya, ma'rifat va falsafiy qarashlarning yoshlar faoliyatidagi ahamiyatini namoyon etgan. Uyg'onish davrlarida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatida yoshlar ijtimoiy faolligi ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, jadidlar davrida ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatida yoshlar ijtimoiy faolligi masalasi ustuvorligi avval Rossiya imperiyasi, keyin sovet hukumati g'oyaviy asoslari bilan mujassam bo'lmadi.

O'tgan asrda, dunyo hamjamiyati tomonidan yoshlar ijtimoiy faolligi masalasi ustuvor vazifalar qatoriga ko'tarilib, bir qator yetakchi davlatlarda ilg'or tajribalar amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu tajribalar bugungi kunda ijobiy amaliyot sifatida dunyo mamlakatlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Istiqlool davri mamlakatimiz uchun yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish tizimli mexanizmlarini yaratish va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning faol ishtirokini ta'minlash yangi tarixiy imkoniyatlarni berdi. Ilmiy-tadqiqotlar va tarixiy meros tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon qadimiy an'analar, ma'naviy meros va falsafiy qarashlarga tayanib, zamonaviy davrda ham yoshlar ijtimoiy faolligini ta'minlash uchun mustahkam nazariy asosni tashkil qilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini o'rganish va tahliliga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda yoshlar ijtimoiy faolligini fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qiluvchi modellar yetarlicha qo'llanilmagan. Mavjud tadqiqotlarda asosan yoshlar siyosati, fuqarolik jamiyati faoliyati alohida o'rganilib, ularning integratsiyalangan nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Undan tashqari, bu borada samarali mexanizmlarni shakllantirish uchun o'zbek jamiyatining madaniy, milliy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan lokal modellar ishlab chiqishga qartilgan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Shu tarzda, yoshlarning ijtimoiy faolligi va bunda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki tarixiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida saqlanib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. ПФ-5106-сон 05.07.2017. Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида (lex.uz)
2. Мирзиёев Ш. Президент: Маънавият бошқа соҳалардан олдинда юриши, янги кучга, янги ҳаракатга айланиши керак (president.uz).
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 504-бет.
4. A/RES/50/81 13 March 1996. Всемирная программа действий для молодёжи до 2000 года и на последующий период. A_RES_50_81-RU.pdf. (мурожаат қилинган сана – 16.01.2024).
5. Costanza-Chock, Sasha, Youth and Social Movements: Key Lessons for Allies (December 17, 2012). Berkman Center Research Publication No. 2013-13, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2199531> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2199531>.
6. Council of Europe. (2020). *Youth work in SEE – integral*. Retrieved from <https://rm.coe.int/call-for-participants-study-visit/1680af98e7>.
7. Fominaya, C. F. (2020). *Social movements in a globalized world*. Bloomsbury Publishing.
8. Emily Mei. Youth-Led Social Identity and Movements: A Case Study of Youth Activism in Hong Kong / Aleph, UCLA Undergraduate Research Journal for the Humanities and

- Social Sciences, 18(1). – 2021, eScholarship.org, <https://escholarship.org/terms>. – P. 148-166.
9. European Commission (2006). The demographic future of Europe – from challenge to opportunity. Commission Communication. 12.10.2006. COM (2006) 571 (Brussels).
 10. European Union, Youth Partnership. Youth and social movements - Youth Partnership;
 11. Jennifer Earl, Thomas V. Maher, Thomas Elliott. Youth, activism, and social movements / Sociology Compass: Volume 11 Issue 4. [Youth, activism, and social movements - Earl - 2017 - Sociology Compass - Wiley Online Library](#).
 12. Kumar, S.(2024). Youth Activism: The Role of Young People in Social Change. ShodhKosh: Journal of Visual and Performing Arts, 5(2), 1072–1077. doi:10.29121/shodhkosh.v5.i2.2024.4205;
 13. OECD (2024), OECD Youth Policy Toolkit, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/74b6f8f3-en>; A/80/375. [UN. Secretary-General. Policies and programmes involving youth: report of the Secretary-General. A/80/251 25b Social development, including questions relating to the world social situation and to youth, ageing, disabled persons and the family. SOCIAL CONDITIONS A/80/251 25b\[4\] YOUTH](#). – New York] : UN, 11 Sept. 2025. – 17 p.
 14. Qodirov, N. (2024). XIX аср ўрталарида Ўрта Осиё анъанавий таълим тизими ҳолати. Nordic_Press, 2(0002).
 15. [Qodirov, N. \(2024\). Сиёсий партиялар “Ёшлар қанотлари” нинг ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишдаги иштироки. Nordic Press, 3\(0003\).](#)
 16. Qodirov, N. N. (2025). The Formation of the Secondary Vocational Education System in the Turkestan Region during the Second Half of the 19th-Early 20th Century. RUDN Journal of Russian History, 24(3), 464-477.
 17. United Nations Children’s Fund (UNICEF), Youth, Protests and the Polycrisis. – UNICEF Innocenti – Global office of Research and Foresight. – March 2024. – P. – 39-42;
 18. United Nations World programme of action for youth. Adopted by the United Nations General Assembly in its resolutions A/RES/50/81 and A/RES/62/126 on 14 December 1996 and 18 December 2007. – P. 44;
 19. World Youth Report 2005. Young people today, and in 2015. Department of Economic and Social Affairs – United Nations, October 2005. – P. 16-17.
 20. Абдукамилов Р. Авестийский текст о государственности и праве: вопросы генезиса и эволюции структур. Ўзбекистон тарихи, 2000, 3-сон, 22-бет.
 21. Абдурахманова Н.Г. Инсон капиталига сармоя Янги Ўзбекистон тараққиёти кафолати. Инсон капиталига сармоя Янги Ўзбекистон тараққиёти кафолати - Review.uz. (мурожаат қилинган сана – 13.01.2024).
 22. Абдурашидхонов М. Хотираларим. -Т.: Шарқ, 2001;
 23. Абрахимова З.Р. Проблема воспитания патриотизма у молодежи в современном мире. Молодежь в современном мире: проблемы и перспективы. XIV Международная научно-практическая интернет конференция (UNEVOC), Уфа, Изд-во Башкирского института социальных технологий, 2018, с. 5–25.
 24. Авлоний А. Танланган асарлар 1, 2-жилдлар. Маънавият. 1998.
 25. Алимова Д. Жадидчилик феномени. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 7.
 26. Амир Темур тузуклари. – Тошкент: Фофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 24-бет.
 27. Ахмедов Т. Миллий давлатчилигимиз тарихида кенгаш, машварат ва маслаҳат. – Т.: Зарқалам, 2006. –Б. 6-12.
 28. Беруний А.Р. Ҳиндистон // Асарлар. – Т.II. – Т.: Фан. 1965. – Б. 70, 125, 161; Минералогия: собрание сведений для познания драгоценностей – М., 1963. – Б. 104.
 29. Беҳбудий М. Туркистон маданият муҳторияти лойиҳаси. Жаҳон адабиёти, 2003

- йил, август, 146-б.
30. Беҳбудий. Танланган асарлар. Сўз боши. Т; Маънавият, 1999, 28-б.
 31. Бобур. Бобурнома. -Т.: Юлдузча, 1989.
 32. Ганиева С. Алишер Навоий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фанлар академияси, 1962. – Б. 37.
 33. Грачев Е.Н. Молодежная политика в Европейском Союзе: национальный и наднациональный уровни. Дисс. на соискание ученой степени канд. полит. Наук. – Москва – 2019. – С. 41-43.
 34. Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций / Генеральная Ассамблея. 2000. 8 сент.
 35. Дўстқораев Б. Ўзбекистонда янги давлатчилик маърифати. Жамият ва бошқарув, 1997 йил, 2-сон, 13 -бет.
 36. Жакбаров М. Комил инсон ғояси: тарихий фалсафий таҳлил. – Т.: Абу Али ибн Сино нашри., 2000. – Б. 256.
 37. Жалолиддин Давоний. Ахлоқи Жалолий. ЎзФА Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди.
 38. Зуляр Р.Ю. Обзор деятельности институтов государственной молодёжной политики Китая на современном этапе // Российско-китайские исследования. – 2023. – Т. 7, № 4. – С. 397-405. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=59461526>.
 39. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2009. Т.17. – Б.131.
 40. Кинадзе В.Г. Молодежь СССР. Наука. Общество. Оборона. URL: <https://www.no-journal.ru/энциклопедия/1943/молодежь> (дата обращения 21.06.2019).
 41. Ковалева А.И. От комсомольского строительства к теории организаций. Знание. Понимание. Умение, 2016, № 3, с. 21–24;
 42. Кон И.С. НТР и проблемы социализации молодежи. Москва, Знание, 1988, 63 с.;
 43. Ло М. Современные системы социального управления молодёжью в Китае // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. – 2022. – Т. 28, № 4. – С. 277-292. – URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=53811872>.
 44. Медведев И.А. Молодежная политика в СССР: достижения и просчеты. Гуманитарный вестник, 2019, вып. 4. <http://dx.doi.org/10.18698/2306-8477-2019-4-617>.
 45. Международный Год Молодежи. 12 августа 2010 года — 11 августа 2011 года. Диалог и взаимопонимание. Подготовлено в Организации Объединенных Наций Нью-Йорк. - July 2010. – Р. 12.
 46. Мирзаев И. Бобур маърифати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 14, 32.
 47. Молодежная стратегия Организации Объединенных Наций. Молодежь 2030: работа с молодёжью и в интересах молодёжи. <https://www.un.org/youthaffairs/ru/youth2030/about?ysclid=mcvkj1z74q55589663>.
 48. Молодежь Центральной Азии. Вызовы миростроительству. Комплексный исследовательский обзор. Опубликовано Организацией Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры. UNESCO 2022. – стр. 4.
 49. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 12 бет.
 50. Организация объединенных наций. Глобальные вопросы повестки дня. Молодежь. <https://www.un.org/ru/global-issues/youth?ysclid=mbdkyuguo1901816910>.
 51. Отамуродов С. “Авесто” миллий ғоямиз манбаи. Жамият ва бошқарув. 2002, 1-

- сон, 34 бет.
52. Радюшин Д.М., Прусова В.И., Арифуллин И.В., Жидкова М.А. Зарубежный опыт реализации молодежной политики. <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-realizatsii-molodezhnoy-politiki-1/viewer>.
53. Соколов А.В. Современные институты молодежной политики в Европе: история становления и развития/ Вестник международных организаций. – 2009. – № 1 (23). – С. 84-99.
54. Старр С.Ф. Утраченное Просвещение: Золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлана. – Москва: Альпина Паблишер, 2017. – 561 стр.
55. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тузувчилар: М.Хайруллаев, Х.Алиқулов. Академик М.М.Хайруллаев таҳририда. — Т.: Ўзбекистон, 1995.— 9, 67, 120 бетлар.
56. Ульжаева Ш.М. Амир Темур салтанатида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. Тарих фанлари доктори дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 6.
57. Усманова А.А. Политико-психологические основы формирования социальной активности молодежи Узбекистана. Перераб. и доп. – Т.: Филиал РГУ (НИУ), 2020. – 23 с.
58. Фитрат А. Танланган асарлар 1, 2, 3-жилдлар, 2000-2003.
59. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма. А. Жалилов, У. Муҳаммадиев, Қ. Жўраев ва бошқ. — Тошкент, 2015. – 81-83 бетлар.
60. Хаджамуратова М. Ўзбекистонда ёшларни ижтимоий ҳимоя қилишда давлат сиёсатининг инновацион хусусиятлари (1991-2021 йиллар). Монография. – Тошкент: Тубо нашр, 2024.
61. Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Муҳсиний. Душанбе, Адиб, 1991.
62. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг (Саодатга элтувчи билим). (Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи Тўҳлиев Б.). Тошкент: Ғофур Ғулом, 1980. – 14 бет.

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com